

## “LEKSEMANING INTEGRAL VA DIFFERENSIAL SEMALAR

**Xaydarova Maftunaxon G`ayratjon qizi**

*Qo`qon shahar 22-maktab O`qituvchisi*

*Maftunaxonhaydarova628@gmail.com*

*Tel: 90 150 96-17*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada leksemaning integral va differensial semalari haqida tilshunos olimlarning fikrlari, shuningdek, bu mavzu yuzasidan mening fikr mulohazalarim haqida so`z yuritilgan.*

**Kalit so`zlar:** *Leksema, semema, leksik birlik, nominativ funksiya, onomasiologiya, semasiologiya, ideografik sema, integral sema, differensial sema, farqlovchi sema, denotativ sema, konotativ sema, miqdor, ravish.*

Leksema (< grek. Lexis – ibora, nutq oboroti). Tilning lug`at sostaviga xos birlik; til strukturasi leksik ma`no anglatuvchi elementi.

[Xojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug`ati// Toshkent: O`qituvchi 1935.]

Tilshunoslikda leksik mazmunli so`zlarning strukturasi har xil ta`riflanmoqda: ayrim manbalarda leksik mazmunli so`zlarning ifoda tomoni (ifodalovchisi) leksema deb, mazmun tomoni (ifodalanuvchisi) esa semema deb atalmoqda. Demak, leksema va semema leksik birlikning (so`zning) o`zaro aloqada bo`lgan ikki tomoni ekanligi aytiladi.

[Толстой Н.И. Из опытов типологического исследования славянского словарного состава.- «Вопросы языкознания», 1963, №1. Яна: Новиков Л.И. Семантика русского языка. М.: «Высшая школа». 1982, с. 114].

Boshqa manbalarda esa leksema so`zning ifoda tomonigina emas, balki uning ifoda va mazmun tomonlari birligidan iborat yaxlit butunlik ekanligi ta`kidlanadi. Bu butunlik nominativ funksiyadagi so`z yoki so`z birikmasi shaklida bo`ladi. U onomasiologiyada tilning lug`at tarkibidagi bir component (vokabula) sifatida, semasiologiyada esa ma`lum ma`nolar tarkibidan iborat birlik (semantema) sifatida o`rganiladi.

[Кодухов В.И. Введение в языкознание. М.: «Просвещение». 1979, с. 184-186].

O`zbek tilshunosligida leksik mazmunli so`zning leksema deb atalishi (demak, leksemaning ifodalovchi va ifodalanuvchi tomonlar birligidan iborat bir butun leksik birlik sifatida qaralishi) keng tarqalgan? Bunda uning ifoda tomoni (ifodalovchisi) nomema termini bilan, mazmun tomoni (ifodalanuvchisi) esa semema termini bilan nomlanmoqda

[Ne`matov H., Rasulov R. O`zbek tili system leksikologiyasi asoslari.- T.: “O`qituvchi”, 1995, 54-55-b].

Sema - (yunoncha, sema — belgi) — mazmun, ma`no jihatining eng kichik birligi, semema (leksik ma`no)ning tarkibiy qismi. Masalan, «atrof» leksemasining ma`nosi (sememasi) «hamma» va «tomon» semalaridan iborat. Yoki «daraxt» leksemasining sememasi «predmet», «o`simlik», «yerda o`svuvchi», «tanali», «ildizli», «shoxli», «bargli» va

boshqa semalardan tashkil topadi. Ma'lum leksiksemantik guruhga oid sememalardagi semalar shu sememalar uchun umumiy yoki xususiy ekaniga ko'ra, 2 asosiy turga bo'linadi; umumiy, birlashtiruvchi (integral) semalar va farqlovchi (differensial) semalar. Umumiy sema — bir semantik maydondagi sememalarning tutashtiruvchi semasi. Masalan, aka, opa, singil kabilardagi «qarindoshlik» semasi. Chopmoq, oqmoq, sakramoq kabilardagi «harakat» semasi. Farqlovchi sema — ko'p ma'noli so'z sememalaridan har birining o'ziga xos bo'lgan, ular sememasini bir-biridan farqlaydigan semalar. Masalan, aka, uka so'zlari katta-kichiklik semasi bilan, opa, aka so'zlari esa jins semasi bilan farqlanadi.

[<https://uztext.com/56634-text.html>]

Semalar ma'no xususiyatlariga va vazifalariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Atash semalari. Ular ideografik semalar, denotativ semalar deb ham yuritiladi. Bunday semalar semema tarkibidagi asosiy semalar sanaladi, chunki ular denotativning (nomlanayotgan narsa yoki hodisaning) asosiy belgi-xususiyatini nomlaydi. Atash semalari (ideografik semalar) o'z navbatida ikki turga bo'linadi: a) integral semalar. Bunday semalar ikki yoki undan ortiq sememalarni bitta mazmuniy guruhga birlashtiradi. Masalan, o'zbek tilidagi amaki, amma, tog'a, xola leksemalarining barchasida “qarindosh”, “yaqin qarindosh” semalari bor, bu semalar shu leksemalarni bir umumiy guruhga birlashtiradi (ularning “integral semalar” deb nomlanishi ham shundan); b) differensial semalar. Bunday semalar bir mazmuniy guruhdagi leksemalarning ma'nolarini bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladi. Chunonchi, amaki va tog'a leksemalari “qarindosh”, “yaqin qarindosh” semalari asosida bitta mazmuniy guruhga birlashadi, ammo “amaki”dagi “otaning akasi yoki ukasi” semasi “tog'a” leksemasida yoq, “tog'a” leksemasining semantik tarkibidagi “onaning akasi yoki ukasi” semasi esa “amaki” leksemasining semantik tarkibida yo'q, demak bu sema amaki va tog'a leksemalarini bir-biridan farqlash imkonini beradi.; amaki va amma, tog'a va xola leksemalari ham “qarindosh”, “yaqin qarindosh” semalari bilan birlashadi, ammo “erkak” va “ayol” semalari bilan o'zaro farqlanadi. Leksik ma'noni (sememani) tarkibiy qismlarga – semalarga parchalab tadqiq qilish semasiologiyada komponent tahlil metodi, semik tahlil metodi nomlari bilan atab kelinmoqda.

2. Ifoda semalari. Ular baho semalari, konnotativ semalar deb ham yuritiladi. Bunday semalar leksema tomonidan nomlangan hodisaga, voqelikka subyektiv SHAHAR ilm-fan markazi madaniyat markazi boshqaruv markazi maishiy xizmat ko'rsatish markazi sanoat va savdo markazi yirik aholi punkti munosabat bildiruvchi belgi sanaladi, shuning uchun baho semasi deb ham qaraladi. Ba'zi adabiyotlarda semalarning ma'no xususiyatlariga ko'ra uchinchi turi – vazifa semasi borligi, ular leksemaning nutqdagi vazifasini belgilashi aytilgan. Tilshunos M. Hakimovning fikricha, “semema tarkibida denotativ va konnotativ semalar bilan bir qatorda vazifa semasining ajratilishi to'g'ri emasdek ko'rinadi. Zero, vazifa bajarish yoki birika olish leksik ma'noning imkoniyatidir, ammo uning tarkibiy qismi emas”. Yuqoridagi ma'lumotlardan vazifa semasi haqidagi fikrlarning hozircha munozarali bo'lib qolayotganligi ham ma'lum bo'ladi. Tilda integral semaning yirik guruhlarni birlashtiruvchi turi ham mavjud. Masalan, “miqdor” ma'nosi son turkumidagi bir, ikki, uch,

to'rt leksemalarini bir guruhga birlashtiradi va shu guruh leksemalari uchun integral (birlashtiruvchi) sema sanaladi. Ayni shu sema (miqdor ma'nosi) ravish turkumidagi ko'p, oz, mo'l, kam leksemalari sememasida ham bor. Demak, "miqdor" semasi ikkita alohida-alohida guruh leksemalarining barchasi uchun umumiydir, shuning uchun u arxisema sanaladi.

[H.Ne'matov, R. Rasulov. O'zbek tili system leksikologiyasi asoslari.- T.: O'qituvchi, 1995.-62-b]

Kitob, daftar, ruchka, qalam, chizg'ich leksemasining integral semasi bu "o'quv qurollari" semasiga birlashadigan bo'lsa, kitob va daftar semasining differensial semasini ham ko'rishimiz mumkinki: kitob faqat o'qish uchun mo'ljallangan o'quv quroli. Daftar esa faqat yozish uchun mo'ljallangan o'quv quroli ekanligini anglashimiz mumkin. Xulosa qilib aytganda, tilimizdagi leksemalarning semalariga qarab integral va differensial semalariga guruhiga kirgizishimiz mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati// Toshkent: O'qituvchi 1935.
2. Толстой Н.И. Из опытов типологического исследования славянского словарного состава - «Вопросы языкознания», 1963, №1. Яна: Новиков Л.И. Семантика русского языка. М.: «Высшая школа». 1982, с. 114
3. Кодухов В.И. Введение в языкознание. М.: «Просвещение». 1979, с. 184-186.
4. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili system leksikologiyasi asoslari.- T.: "O'qituvchi", 1995, 54-55-b.
5. <https://uztext.com/56634-text.html>.
6. H.Ne'matov, R. Rasulov. O'zbek tili system leksikologiyasi asoslari.- T.: O'qituvchi, 1995.-62-b.